# Ikkinchi Jahon urushi faxriylari uchun Uzbekistan Airways’dan imtiyozli aviachiptalar

**2023 7 May**

Chegirma taqdim etiladigan shaxslar toifasi (imtiyozli yoʻlovchi):

- 1941-45 yillardagi urush qatnashchilari;
- 1941-45 yillardagi urush nogironlari;
- Urush yillarida fidokorona mehnati va beminnat harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;
- Natsistlar va ularning ittifoqchilari tomonidan yaratilgan getto kontslagerlari va boshqa qamoqxonalarning sobiq voyaga yetmagan asirlari;
- “Leningrad mudofaasi uchun” medallari yoki “Qamaldagi Leningrad aholisi” koʻkrak nishonlari bilan taqdirlangan shaxslar;
- Armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmat qilgan harbiy xizmatchilar va sobiq SSSRni himoya qilish boʻyicha fuqarolar urushi va harbiy harakatlar qatnashchilari hamda sobiq faxriylar;
- Sovet Armiyasining fuqarolik tarkibidan boʻlgan shaxslar, Harbiy dengiz floti, sobiq SSSR ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari, Ikkinchi Jahon urushi yillarida armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlarda, shtablarda, muassasalarda toʻliq shtat lavozimlarida ishlagan, yoki ushbu davrda mudofaadagi ishtiroki armiya boʻlinmalarining sohadagi harbiy xizmatchilari uchun belgilangan imtiyozli shartlarda pensiya tayinlash uchun ish stajiga hisoblangan shaharlarda boʻlgan shaxslar uchun;
- Sobiq SSSRni mudofaa qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish paytida yoki frontda boʻlganligida kasallik natijasida olingan jarohatlar, kontuziya yoki ular natijasida vafot etgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va xotinlari;
- Antifashistik qarshilik harakatining sobiq aʻzolari;
- Ikkinchi Jahon urushi yillarida Qizil Armiya saflaridagi shaxslar lavozimiga oʻtkazilgan va amaldagi frontlar yoki harakatlanuvchi flotlarning operatsion zonalari manfaatlarini koʻzlab vazifalarni bajargan maxsus kuchlarning sobiq xodimlari.

Imtiyoz yo‘lovchiga hamrohlik qiladigan 1-kishi uchun ham amal qiladi.

Chegirma turi:

- Imtiyozli yo‘lovchi uchun 1 ta bepul ekonom-klass chiptasi (barcha soliqlar va yig‘imlardan ozod, YQ/YR undirilmaydi) va hamrohlik qiluvchi shaxs uchun 1 ta ekonom-klass chiptasi (barcha soliq va yig‘imlardan ozod, YQ/YR undirilmaydi).

Tashuv yo‘nalishi:

- “Uzbekistan Airways” AJning barcha yo‘nalishlari O‘zbekistonga/O‘zbekistondan Rossiya Federatsiyasi, Gruziya va MDH davlatlari shaharlariga va ortga, shuningdek, ichki yo‘nalishlar bo‘yicha;

Imtiyozli aviachipta olish uchun asos:

- Imtiyoz olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma, harbiy guvohnoma;

Sotish davri:

- 2023-yil, 1-maydan 15-maygacha;

Tashuvning boshlanishi:

- 2023-yil, 1-maydan 15-maygacha;

Aviachiptani amal qilish muddati:

- 1 oy;

Tashuv turi:

- Borish va qaytish uchun;

Qaytarish:

- To‘lovlarni yig‘masdan qaytarishga ruxsat beriladi;

Parvoz vaqti va yo‘nalishini o‘zgartirish:

- Tashish boshlangan sana va aviachiptaning amal qilish muddatini hisobga olgan holda, shuningdek aksiya doirasidagi marshrutlar doirasida tekinga ruxsat beriladi;

Boshqa talablar:

- Aviachiptalar faqat “Uzbekistan Airways Sales” filiali va uning Oʻzbekiston aeroportlarida joylashgan savdo shaxobchalarida, shuningdek, xorijdagi savdo ofislarida taqdim etiladi;
- Imtiyozli yoʻlovchilar uchun aviachiptalarni rasmiylashtirish qatʻiy belgilangan namunadagi guvohnoma taqdim etilgandan keyin amalga oshiriladi;
- Imtiyozli yoʻlovchini hamrohlik qiluvchi shaxs bilan kuzatib borishda aviachiptalar faqat bitta bronda beriladi;
- Joʻnash sanasi yoki marshrutni oʻzgartirish/aviachipta pulini qaytarish faqat imtiyozli yoʻlovchi va hamrohlik qiluvchi shaxs uchun bir vaqtning oʻzida amalga oshiriladi;